

## TA'LIM SAMARADORLIGIGNI OSHIRISHDA MAVZULI KONSERTLARNING AHAMIYATI.

**Abdukarimova Elnoza Ismatillayevna**  
JDPI Musiqiy ta'lif kafedrasini o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lif sifat va samaradorligigni oshirishda ta'lif texnologiyalarining o'rni va ahamiyati ta'kidlangani holda musiqa ta'limida mavzuli kontsert o'quvchilarni musiqa madaniyatini musiqiy didi, va tafakkurini o'stirishdagi roli haqida fikr yuritiladigan ilg'or pedagogik texnologiya.

**Аннотация:** Подчеркивая роль и значения образовательных технологий в повышении качества и эффективности передовых педагогических технологий, тема концерта в музыкальном образовании технологии.

**Annotation:** Emphasizing the role and importance of educational technologies in improving the quality and effectiveness of advanced pedagogical technologies, the theme of the thematic concert in music education technology.

**Kalit so'zlar:** musiqa, konsert, dars, mumtoz, maqom, san'at, Oliy pedagogik ta'lif, umumiy o'rta ta'lif maktablari, talaba, o'quvchi, estetik tarbiya, kuy va qo'shiqlar.

Musiqa darslari o'z mazmuni mohiyati va tabiatiga ko'ra sana't darsidir. Musiqa darslarini sermazmun va qiziqarli tashkil qilish o'qituvchidan muayyan darajadagi pedagogik va kasbiy mahoratni talab etadi. Musiqani tinglash, his etish, unda ifodalangan voqelik, obraz va mualliflarning g'oyasini idrok qilish nihoyatda murakkabdir. Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqani tushunish, unung g'oyaviy – badiiy mazmunidan bahramand bo'lishi muayyan darajada musiqiy bilim, konikma va malakalar bilan bir qatorda emosional his – tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liqdir. Musiqiy – nazariy bilimlarni o'zlashtirish, asarlarni tinglash, ijro va idrok etishda emosional ta'sirchanlik qanchalik faol bo'lsa ularni o'zlashtirish va estetik zavq olish ham shunchalik yuqori, mazmundor va puxta bo'ladi. Musiqa darslarida o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyotiga mansub folklor, mumtoz va maqom asarlari, zamонавиј janrlarda yaratilgan kuy – qo'shiqlar, shunungdek, musiqa san'atining atoqli namoyondalari-xalq hofizlari, cholg'uchilari, bastakor –kompazitorlar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirib borish o'quvchilarni musiqiy tafakkuri va dunyoqarashini shakllanishi va rivojlanishi, musiqa madaniyatini tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu

esa o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga o'z pedagogik mahorati va o'qitish uslublarini uzluksiz takomillashtirib borish vazifasini qo'yadi.

Shunday vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablari "musiqa madaniyati" fani bo'yicha o'tkaziladigan sinf – konsertlari va sinfdan tashqari tashkil qilinadigan mavzuli konsertlarni o'ziga xos o'rni va ahamiyati kattadir. Musiqa ta'limi va tarbiyasi bo'yicha sinf konsertlarini chorak va yil mavzulari bo'yicha, mavzuli kosertlarni darsdan tashqari faoliyatda musiqa san'atining ayrim janrlari, asarlar, bastakor – kompazitorlar hayoti va ijodiga bag'ishlab o'tkazilishi mumkin. Mavzuli konsertlarni tashkil qilish quyidagi maqsad va vazifalarni ko'zda tutadi:

- o'quvchilarda milliy musiqa merosga qiziqish va mehr – muhabbat, uni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni o'stirish, musiqa san'atining mashhur namoyondalari hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirib borish;

- o'quvchilarda musiqada ifodalangan voqe – hodisalarga estetik munosabatni tarkib toptirish, musiqa asari mazmunida ifodalangan voqelikni, obrazlarni idrok etish, shu orqali go'zallikni his qilish, tushunishga o'rgatish;

- o'quvchilarda ma'lum bastakor, kompazitor, ijodkor hayoti, faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, ularning eng sara asarlarida aks etgan falsafiy, ijtimoiy, madaniy g'oyalar, hayot manzaralari, badiiy obrazlar mohiyatini anglash, idrok qilishga o'rgatish;

- xalq musiqasining folklor, mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari bilan chuqurroq tanishtirish, bu san'at janrlarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida kengroq bilim va tushunchalarga ega bo'lish, milliy musiqamizga barqaror qiziqishni hosil qilish;

- o'quvchilarda musiqa asarlarini tinglash, kuylash, ijro etishga ijodiy yondashish konikma va malakalarini tarkib toptirish:

- o'quvchilarda musiqiy did, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish:

- mavzu doirasida musiqiy – nazariy bilim, tushuncha va ma'lumotlarni o'zlashtirishda qo'shimcha manbaalardan foydalana bilishga o'rgatish.

Bizga ma'lumki, umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quv materiallari yil va chorak mavzulari kesimida tizimlashtirilgan. Ular mazmunida musiqa san'atining xalq ijodiyotiga mansub folklor (bolalar folklori), mumtoz va maqom yo'nalishlari, zamonaviy musiqa san'atining xor, orkestr (o'zbek xalq cholg'ulari, simfonik orkestr) vokal, simfoniya, opera, balet, estrada, bolalar ertak-tomoshalari, musiqali drama kabi turlari haqida umumiyl ma'lumotlarga orin berilgan. Birgina dars jarayonida ushbu yo'nalish va janrlar bo'yicha to'laqonli bilim va tushunchalarni egallashning imkoniyati g'oyat cheklanganligi, mavzuli konsertlarning dars mazmunini boyitish va

samaradorligini oshirishdagi o'rni va imkoniyatlari g'oyatda katta ekanligini tasdiqlaydi.

Mavzuli konsertlarda o'quvchilar ta'kidlab o'tilgan musiqa san'atining turli yo'nalish va janrlari, atoqli namoyondalarining ijodi, yaratgan asarlari, ijrochilik faoliyati bo'yicha dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlab, o'zлari qiziqqan biror turi bilan mustaqil va qo'shimcha shug'ullanish, o'z iqtidor va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoyiyatiga ega bo'ladilar. Musiqa san'ati bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning muhim bir shakli bo'lgan mavzuli konsertlarni muntazam o'tkazilib borilishini o'quvchilarni musiqa san'atiga qiziq ishlarni oshiradi bilim doirasini kengaytiradi, estetik didlarni shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi. Mavzuli konsertlarni o'tkazish uchun eng avvalo uning reja va dasturi tuziladi. Konser uchun bevosita kerak bo'lgan zarur ko'rgazmali va texnik vositalar: cholg'u asboblari, kompyuter, ovoz kuchaytirgich apparati, mikrafon, ekran, kompozitor-bastakorlar hayoti va ijodiyoritilgan kompakt disklar, stentlar, plakatlar, sahna va sahna ishtrokchilari uchun kerakli buyumlar tayyorlab qo'yiladi. Zalni bezash, taklifnoma, e'lонlar tayyorlashishlari uni o'tkazish uchun mas'ul sinf o'quvchilari yoki to'garak qatnashchilariga yuklatiladi. Vazifalar taqsimlab beriladi. Notiqlar matnni yodlash, badiiy havaskorlarga musiqali nomerlarni dastur bo'yicha sahnalashtirish vazifalari topshiriladi. Mavzuli konsertlar biror bastakor, kompozitor, xofiz, ijrochining yubleyiga yoki o'quv dasturi materiali mavzulariga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar kompozitori Shermat Yormatov, Avaz Mansurov, o'zbek milliy musiqa san'atini darg'alari Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, Komiljon Otaniyozov, bastakorlar Muhammadjon Mirzayev, xalq hofizlari Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, xalq artistlari Mukarrama Turg'unboyeva, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Kompozitorlar-Mutal Burxonov, Sulaymon Yudakov. Yevropa klassik kompozitorlari V.A Motsart, Betxoven, Dj. Verdi, P.I. Chaykovskiy kabilarni ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan bo'lishi mumkin.

Konsert rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. To'garak a'zolari va muayyan sinf o'quvchilari bilan mavzuga oid ijod namunalari musiqiy asarlar fotosur'atlar ko'rgazmasini tashkil etish.
2. Ma'ruzalar tayyorlash.
3. Mavzuga oid qo'shiq, raqslar, murakkab janrlarga xos musiqa asarlari, vedio yozuvlari.

Mavzuli kechalarni o'tkazishda ijodiy jamoalar vakillari, tasviriy san'at, adabiyot o'qituvchilari hamkorligi uning badiiy ta'sirchanligi va mazmundorligini ta'minlaydi. Mavzular o'qituvchi va mutaxassilar tomonidan tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'ruzada san'atshunos olimlarning respublika

matbuotida, ilmiy to'plamlarda chop etilgan maqolalaridan, o'zbek milliy enseklopediyasi va boshqa manbaalardan foydalilanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'ruzalarni zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalaniib, slaydlar orqali namoyish etib borish, uning samaradorligini ta'minlaydi.

Konsert so'ngida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiriladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mavzuli konsertlar, musiqiy ta'limning eng ta'sirchan, samarali shaklidir.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – Toshkent, Ma'naviyat, 2008yil.
2. M.Bo'ronov. "O'zbekistonda ma'naviy-marifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi". Toshkent, Ma'naviyat, 2016yil.
3. D. Soipova. "Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish". – Toshkent, Fan va texnologiyalar markaziy bosmaxonasi, 2006 yil.
4. Qudratov I, Abdukarimova E. "Musiqqa darslarida fanlararo aloqadorlik". Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.
- 5.N. Hasnova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуальный вызывы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
6. E.Abdukarimova. Ilm ham jamiyet Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X
7. Elnoza Ismatillayevna Abdukarimova Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi" iscience 2017 йил
8. 2. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiysi. – Toshkent, XTV, 1995 yil.
9. O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1-Tom. – T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955y.567b.
- 10.Hamidov H. O'zbek an'anviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996y.